



# TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**SHAKAROV Jasurbek Shavkat o'g'li,**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*mustaqil tadqiqotchisi*

## RAQOBAT MADANIYATINING IJTIMOY FAROVONLIKKA ERISHISHDAGI REGULYATIV IMKONIYATLARI

### ANNOTATSIYA

Jamiyatda har bir sohada raqobat madaniyatining qaror topishi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy farovonlikka erishishda keng imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, **regulyativlik, tartibga solish, boshqarish** kabi ma'nolarni aks ettirib, davlat va jamiyat hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu davlatning ichki funksiyasi bo'lib, mamlakatda ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini ifodalaydi. Shuningdek, har qanday raqobat jarayonida madaniyat fenomeni regulyativ imkoniyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** raqobat madaniyati, ijtimoiy farovonlik, regulyativ imkoniyat, jamiyat va davlat, insonparvarlik.

Raqobat madaniyatining *regulyativ imkoniyatlari* deyilganda, bizningcha, raqobatlashuv jarayonlarida sog'lom muhit, adolat, ilmiylik, insonparvarlik, halollik, odamiylik, kelajakni ko'ra olishlik kabi ma'naviy-ma'rifiy hamda axloqiy-estetik mezonlarni tartibga solish va nazorat qilish tushuniladi. Xo'sh, "Raqobat madaniyati raqobat jarayonidagi nimalarni tartibga soladi yoki boshqaradi?", degan savol tug'ilishi tabiiydir. Shuni ta'kidlash o'rinliki, madaniyatli raqobat, avvalo, raqobatlashuv jarayonidagi "raqobat kuchi"ni tartibga soladi.

M.E.Porter o'zining iqtisodiy tadqiqotlariga bozordagi raqobatning holatini beshta raqobat kuchi orqali izohlagan:

✓ "Raqobatlashuvchi sotuvchilar o'rtasidagi bellashuv (har bir firma raqobat afzalliklaridan foyda olish va qulay mavqega ega bo'lish uchun o'zining shaxsiy raqobat strategiyasiga amal qiladi).

✓ Bir-birini o'rnini bosuvchi va narx nuqtai nazaridan raqobatbardosh bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat (o'rnini bosuvchi tovarlar tomonidan yuzaga kelgan xavf tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

✓ Yangi raqobatchilarning paydo bo'lish xavfi (yangi raqobatchilar paydo bo'lishi xavfi tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

✓ Mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (mol yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari).

✓ Xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari (xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari tufayli vujudga kelgan raqobat kuchlari)" [1].

Mazkur mulohazalarda asosan, bozordagi raqobat holatidan kelib chiqadigan raqobat kuchi haqida fikr yuritiladi. Bizningcha, nafaqat bozorda, balki, siyosatda, ta'limda, tibbiyotda, ma'naviyatda, madaniyatda, global jarayonlarda va h.k. jamiyat hayotining har qanday sohasida raqobat kuchini kuzatish mumkin. Misol uchun bugungi kunda butun dunyoda ta'lim sistemasi tarmoqlari o'zaro bellashuvining amalga oshayotgani raqobat kuchining yorqin namunasidir.

Yildan-yilga turli ta'lim tashkilotlari o'zlarining turlicha, zamonaviy, innovatsion ta'lim dasturlarini taklif etayotganligi, ayniqsa, xususiy, differensial, masofaviy, online, tezkor ta'limdagi shiddat bilan borayotgan o'zgarishlar raqobat kuchining ortib borayotgankigidan dalolatdir. Yoki, tibbiyot sohasida har bir tibbiy tashkilot o'z sohasida barcha imkoniyatlarni ishga solib, "eng kuchlisi, eng zo'ri" bo'lishga intilmoqda.

Aynan ana shunday raqobat kuchlarini o'ta shiddatkor tus olib, tizimning zarariga ishlamasligi uchun ham "raqobat kuchini" tartibga solish, boshqarib turish lozim. Bunda esa madaniyatli raqobatgina reguliyativ ta'sirga ega hisoblanadi. Ayniqsa, ma'naviy raqobat jarayonida raqobat kuchini tartibga solish juda muhim sanaladi. Vaholanki, ma'naviy raqobat, inson ongi, tafakkuri, his-tuyg'ulari bilan bog'liqlikda amalga oshgani uchun ham, jamiyat hayoti uchun juda katta ta'sir kuchiga ega jarayondir.

Ma'naviy raqobat tushunchasiga professor Sh.Sh.Negmatova quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Ma'naviy raqobat deb, kishilarning o'zaro tabiat, jamiyat, inson tafakkurida sodir bo'layotgan voqea-hodisa, jarayonlarni tushunish va tushuntirib berish, yashashdan maqsadlarini belgilash, muammolarning yechimini topish uchun axloqiylik yoki axloqsizlik, ma'rifat yoki jaholat, ezgulik yoki tubanlik qilishdan iborat bo'lgan ma'rifiy-mafkuraviy, diniy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantirish, ularni targ'ib va tashviq qilish orqali muayyan ustunlikka erishish borasidagi xatti-harakatlariga aytiladi" [2].

Demak, ma'naviy raqobat jarayonida inson tafakkuri nafaqat, ijobiylikka, balki, salbiy omillarga ham asoslanishi mumkin. Bunda inson tafakkuri imkoniyatlari, bilimlilik, ma'naviyatlilik, tarbiyalanganlik darajasi muhim o'rin tutadi. Ma'naviy raqobatni tartibga solish jarayonida raqobat madaniyatining reguliyativ imkoniyatlari mazkur raqobat subyektlari tafakkur tarzini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, ma'naviy raqobat subyektlari tafakkur tarziga ta'sir etib, uni boshqarishda hamda raqobat kuchini tartibga solishda ta'sir etadi. Ma'naviy raqobat subyektlari sifatida esa, quyidagilar keltirib o'tiladi:

1. Odam, kishi, shaxs, individlar. Chunki ular qanchalik bir birlariga tashqi tarafdan o'xshash bo'lmasinlar, o'zlarining fe'l-atvori, ichki dunyosi, fikrlash qobiliyatlari kabi bir qator xislatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ana shu farq ularni ma'naviy raqobat subyektiga aylantiradilar.

2. Ijtimoiy guruhlar, jamoat tashkilotlari. Bular o'zlarining oldiga qo'ygan maqsad-muddaolariga yetishda ustunlikni qo'lga kiritish uchun bir-birlari bilan ma'naviy jihatdan raqobatga kirishadilar.

3. Ma'muriy-siyosiy tashkilotlar. Bular jumlasiga davlat hokimiyati organlari, davlat tasarrufidagi barcha tashkilotlar, ayniqsa, maktablar, o'rta maxsus litsey va kasb-hunar kollejlari, institute va universitet, akademiya ham ma'naviy tomondan raqobatlashadilar.

4. Xalqaro tashkilotlar. Masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, BMT Jahon sayohlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va shunga o'xshashlar. Bunday xalqaro tashkilotlar ham o'zlarining g'oya va mafkuralarining ustunligini ta'minlash uchun ma'naviy jihatdan raqobatlashadilar [3].

Demak, ma'naviy raqobat subyektlariri haqidagi mazkur mulohazalar ham, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mazkur jarayonda raqobat kuchini tartibga solish juda muhim ekanligini yana bir bora isbotlaydi. Chunki, uchbu subyektlarning har biri, davlat va jamiyat hayotini tutib turuvchi, rivojlantiruvchi, jahondagi o'rnini belgilab beruvchi eng asosiy bo'g'inlar hisoblanadi.

Raqobat madaniyatining yana bir reguliyativ ta'siri raqobat jarayoni subyektlarini mazkur jarayonga moslashtirishga ta'sir etishi bilan izohlanadi. Ma'lumki, har qanday soha taraqqiyotida raqobat muhiti qaror topishi zarurat sanaladi.

Masalan, yangi bir soha taraqqiyotiga hissa qo'shish maqsadida tashkil etilgan kichik bir tashkilot, yoxud katta aksionerlik kompaniyasi bo'lmasin, hattoki, mustaqil tashkil etilgan yirik davlat bo'lsa ham faoliyatining dastlabki kunlaridanoq zamon talabidan kelib chiquvchi raqobat muhitiga duch keladi.

Ana shu ilk faoliyat bosqichida raqobat madaniyatining oqilona boshqaruvni, to'g'ri yo'lni, o'z imkoniyatlaridan kelib chiquvchi yangi strategiya va modellarni ishlab chiqishda tartibga soluvchilik, boshqaruvchilik imkoniyatiga ega hisoblanadi. Masalan, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida, shiddatkor, globallashtirish davridagi raqobat muhitiga qadam qo'yishda, yangi taraqqiyot yo'lini belgilashda, jahon iqtisodiyotiga moslashishda, har bir sohadagi me'yoriy, bosqichma-bosqich raqobatlashuv jarayonidagi ishtirok etishda madaniyatli raqobatgina ta'sir etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqobat madaniyatining yana bir regulyativ imkoniyati bugungi global taraqqiyot davrida, fan va texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanayotganligidan kelib chiqqan holda texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari, turli modernizatsion, innovatsion o'zgarishlarning kirib kelishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi. uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda.

Masalan bugungi kunda tibbiyotdagi fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalar shu darajada takomillashib bormoqdaki, inson hayotini saqlab qolish, uni umrini uzaytirish, yoki, turli chegara bilmas xohish-istaklarini amalga oshirish uchun har qanday amaliyotlarga qo'l urilmoqda. Klonlashtirish, gen injeneriyasi, "o'lmaslik molekulasi", sun'iy urug'lantirish, jinsini o'zgartirish, transplantologiya (organlarni transplantatsiya qilish muammolarini (xususan, buyraklar, jigar, yurak, o'pka va hakazo), shuningdek, sun'iy organlar yaratish istiqbollari va muammolarini o'rganadigan tibbiyot sohasi), kabi amaliyotlar bunga misoldir.

To'g'ri inson hayoti eng oliy qadriyat, uni saqlab qolish uchun tibbiyotdagi mazkur yutuqlar insoniyatning juda katta innovatsion, texnologik imkoniyatlarini ochib berdi. Ammo bu fan yutuqlari, aniqroq qilib aytganda raqobatlashuvning keskinlashuvi, insoniyatning axloqan qashshoqlashuviga, o'z-o'zidan begonalashuviga, o'z-o'zini biologic tur sifatida inkor etishigacha olib kelmoqda. Masalan jinsni o'zgartirish amaliyotini hech bir ilmiy, yoki diniy qonuniyat bilan oqlab bo'lmaydi. Yana bir misol, transplantologiya sohasidagi fan yutuqlari shu darajaga yetdiki, bugun hattoki, ksenotransplantatsiya, ya'ni insonga boshqa bir biologik tur (masalan, hayvon)dan organlar va to'qimalarni transplantatsiya qilish tajribalari amalga oshirilayotgani, yoki sun'iy organlar yaratilayotgani fan-texnika sohasidagi raqobatni madaniylashtirishni, axloqiyashtirishni hamda nazorat qilishni zaruratga aylantirmoqda.

Zero, inson o'z xohish istaklarini quliga aylanmasligi, o'z chegara bilmas o'y-xayollarini tartibga solishi, uning istaklari jamiyatni axloqiy tanazzuliga sabab bo'lmasligi uchun ham hattoki, tafakkuri, hissiyotlari imkoniyatlarini ham nazorat qilmog'i lozim. Buni esa fan va texnologiyadagi madaniyatli raqobat fenomeni orqali boshqarib turish mumkin. Shu bilan birga raqobat madaniyatining regulyativ imkoniyatlariga nisbatan oqilona yondashuv lozimki, u ham me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Zeroki, monopolistik raqobat muhiti shakllanib qolmasligi uchun ham, raqobat madaniyatining regulyativlik imkoniyati me'yor darajasida bo'lishi lozim. Vaholanki, mazkur imkoniyat jamiyat hayotining ham ijtimoiy, ham iqtisodiy farovonligiga, yuksalishiga xizmat qiladi.

Raqobat madaniyatining regulyativ, ya'ni boshqaruvchanlik hamda tartibga solishlik imkoniyati, jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligiga ta'sir etish mobaynida mazkur sohalardagi munosabatlarni ham tashkillashtiradi. Ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etadi. Manbalarda qayd etilganidek, "Ijtimoiy munosabatlar - bu kishilar tafakkuri va ularning jamiyatda bajaradigan vazifalari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zaro aloqada yuzaga keladigan turli xil ijtimoiy munosabatlardir...

Ijtimoiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- insonning jamiyat bilan, jamiyatning inson bilan munosabati sifatida;
- jamiyat vakillari sifatidagi shaxslar o'rtasida;
- jamiyat ichidagi elementlar, tarkibiy qismlar, quyi tizimlar o'rtasida;
- turli xil ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy jamoalar va ijtimoiy tashkilotlar vakillari sifatidagi shaxslar o'rtasida"[4].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash o'rinliki, har bir ijtimoiy munosabat elementi hisoblanuvchi subyektlar o'rtasida o'zaro raqobatlashuv kuzatiladi. Shaxslar o'rtasidagi munosabatlardan tortib, turli yirik ijtimoiy institutlarga o'z faoliyati davomida ijtimoiy munosabatlarga kirishadi hamda raqobat madaniyati mazkur munosabatlarni boshqarib, tartibga solib turadi.

Misol uchun siyosiy partiyalar ham aslida bir-biri bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va raqobatlashadi, lekin ushbu munosabat jarayonidagi madaniyatli raqobat yagona maqsad yo'lida safarbar etishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonidagi raqobatlashuvda asosan g'oyalar, fikr va qarashlar, nazariyalar vosita bo'ladi. Ular yaqqol ko'zga tashlanmasligi bilan xarakterlanadi va shunisi bilan ham ba'zida xavfli bo'lishi mumkin.

Masalan mafkuraviy, g'oyaviy kurashlardagi yovuzlik g'oyalari targ'ibotini keltirib o'tish mumkin. "G'oyalar tarixini o'rganish, shuningdek, jahonning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasini tahlil qilish ham g'oyalar kurashi va mafkuralar raqobati uzluksiz, muntazam davom etishini, ularning bari inson ongi va ong osti qatlamlariga, uning qalbi va ruhiga yo'l izlashini, bu kurashda odamlarning ma'naviy hayotini egallagan mafkura g'olib kelishini tasdiqlamoqda. Demak, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo'li ustun kelishi tobora mafkura va ma'naviyat sohasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shuning uchun ular ma'naviy tanazzul va qashshoqlikni yoyish usulidan foydalanishni ko'zlaydilar" [5].

Shuning uchun ham ijtimoiy munosabatlarda, ayniqsa, mafkuraviy jarayonlarda raqobat madaniyatini shakllantirilishi zaruriy ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 1993. – С.224.
2. Negmatova Sh.Sh, Abbosova M.S. Sogʻlom maʼnaviy raqobat – maʼnaviy raqobatbardoshlik asosi sifatida // Ilm sarchashmalari. – Urganch: 2020. –B. 44.
3. Negmatova Sh.Sh, Abbosova M.S. Sogʻlom maʼnaviy raqobat – maʼnaviy raqobatbardoshlik asosi sifatida // Ilm sarchashmalari. – Urganch: 2020. –B. 45-46.
4. Ergasheva M.X. Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili. Oʻquv qoʻllanma. – Samarqand: SamDU, 2021. -.B.64.
5. Quronov M. Maʼnaviy tahdidlarga qarshi kurashning ilmiy-uslubiy hamda gʻoyaviy-mafkuraviy asoslari. “Maʼnaviy tahdidlarga va ularga qarshi kurashishning ilmiy-uslubiy hamda maʼnaviy-mafkuraviy asoslari” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. T.: TIUNMB, 2010. – B. 3.